

MAHALLA BUDJETI TIZIMINI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jabbarov Azamat Murodullaevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted:21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

moliya, byudjet,
davlat moliyasi, davlat
byudjeti, barqarorlik,
muvozanat, mahalliy
byudjet.

Ushbu maqolada mahalla institutining jamiyatdagi o'rnini va uni yanada mustahkamlashga qaratilgan islohotlar yoritilgan. 2023 yil 21 dekabrda qabul qilingan Prezident farmoniga muvofiq, mahallalarni qo'llab-quvvatlash kengashlari va O'zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mahallalarning davlat hokimiyati tizimiga kirmasligi va ularning mustaqil faoliyat yuritishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Shu bilan birga, "maxalla byudjeti" tizimi joriy qilinishi orqali mahallaning moliyaviy mustaqilligi ta'minlanib, mahalliy muammolarni hal etishda aholi ishtirokini kengaytirish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish imkonini yaratildi. Mazkur tizim mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda samarali boshqaruvni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalla o'zbek xalqi hayotida, kundalik turmushida alohida o'ringa ega bo'lgan tuzilma hisoblanadi. So'nggi yillarda mahalla institutining jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, aholi farovonligini oshirishdagi ishtirokini kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2023 yil 21 dekabr kuni qabul qilingan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini

ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni mahallaning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish, aholiga yaqin ko'makchi bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

"Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Mahallalar haqida gapirganda, avvalo, yangilangan Konstitusiyamizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga alohida ta'rif berilganiga to'xtalib o'tsak. Avvalgi Konstitusiyamizda bunday ta'riflar mavjud bo'lmagan. Yangi Konstitusiyamizning XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari" deb nomlanib, 127-moddada "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli", deb mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan 7 ta ustuvor yo'nalishning birinchi yo'nalishida mahalla instituti faoliyati samaradorligini oshirish va uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining muhim bo'g'iniga aylantirish maqsadi belgilangan va bir qator vazifalar o'z aksini topgan.

Endilikda Prezidentimizning mazkur farmon bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari institusional jihatdan tubdan isloh etilyapti. Farmon bilan Respublika hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari tashkil etilmoqda.

O'zbekiston mahallalari uyushmasining asosiy 9 ta vazifasi belgilanyapti. Uyushmaning asosiy vazifasi mahallani chinakamiga boshqaruvning birinchi bo'g'iniga aylantirish, mahallaning xalq bilan davlat o'rtasida «ko'pri» vazifasini bajarishiga sharoit yaratish, mahalladagi muammolarni hal etishda o'zining siyosatini yuritish, aholiga yordam berishdan iboratdir.

Mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari esa mahallani rivojlantirish yuzasidan asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi, daromadlar va xarajatlarga oid dasturlarni ko'rib chiqadi. Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi raisi Bosh vazir, viloyat va tuman, shahar kengashlarining raislari esa tegishincha viloyat va tuman, shahar hokimlari hisoblanadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida 5 ta shtat birligidan iborat "Mahalla yettiligi" faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limi joriy etilmoqda. "Mahalla yettiligi"ga mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiradi Ular mahalladagi ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarda asosiy javobgar hisoblanadi.

Mahalla budjeti tizimi mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahallalar nafaqat o'z hududidagi aholini ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, balki ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, aholining ehtiyojlarini qondirish va jamoaviy hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan bir qancha davlat dasturlarining markaziga aylangan. Mahalla o'zining muhim rolini o'zgaruvchan sharoitlar va ehtiyojlar asosida hamon saqlab keladi, shuning uchun mahalla budjeti tizimi aholi ehtiyojlari va mahalla hokimiyatlarining imkoniyatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bu tizimning asosiy vazifasi mahallalar o'rtasidagi iqtisodiy tenglikni ta'minlash, ijtimoiy sohalarida resurslarni taqsimlash va mahalla darajasida xizmatlarni samarali tashkil etishdir.

Mahalla budjeti tizimi joriy etilishi orqali mahallalarga o'z moliyaviy mustaqilligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon mahalla hokimiyatlariga o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni aniqlash va ularga mos keladigan moliyaviy resurslarni samarali ravishda taqsimlash imkoniyatini beradi. Misol uchun, mahalla aholisi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifatini yaxshilash, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish uchun mahallalar o'z byudjetini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, mahalla budjeti tizimi yordamida mahalladagi resurslar, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va inson resurslari, to'g'ri va adolatli taqsimlanishi ta'minlanadi. Mahalla hokimiyatlari tomonidan qabul qilingan qarorlar va rejalar mahalla aholisining ehtiyojlarini to'g'ri aks ettirishi, shuningdek, jamoaviy manfaatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

Mahalla budjeti tizimi, ayni paytda, aholi va mahalla hokimiyatlari o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan. Aholi bu tizimda bevosita qatnashib, o'z ehtiyojlarini, fikrlarini va takliflarini bildirishlari mumkin. Bu jarayon orqali aholining har bir so'rov va

talabiga javob qaytaradigan eng mos qarorlar ishlab chiqiladi. Mahalladagi fuqarolar, o'z navbatida, bu qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etish orqali o'z ahamiyatlarini, yirik jamoatchilik muammolariga qo'shgan hissalarini his qiladilar. Shu bilan birga, bu tizim aholining davlatga nisbatan ishonchini kuchaytiradi, chunki ular o'z hududidagi moliyaviy resurslarning qanday sarflanishini va bu sarf-xarajatlarning qanday natijalar keltirishini bevosita kuzatish imkoniga ega bo'ladilar. Shunday qilib, mahalla budjeti tizimi orqali mahalla hokimiyatlari jamiyatda mustahkam o'zaro aloqalar va hamkorlik muhitini yaratish, shuningdek, mahallada yashayotgan har bir fuqaroning manfaatlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mahalla budjeti tizimi shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini kengaytirishga yordam beradi. Aholining mahalla budjeti shakllanishiga va uning qanday sarflanishiga doimo nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'lishi, mahalla hokimiyatlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning halol va adolatli bo'lishiga zamin yaratadi. Bu shaffoflik, ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar sohasida resurslarning to'g'ri taqsimlanishini ta'minlaydi.

Mahalla aholisi resurslar qanday va qancha miqdorda sarflanishi, qanday loyihalar amalga oshirilishi haqida doimiy ravishda ma'lumotga ega bo'ladi. Bu orqali mahallada amalga oshirilayotgan har bir loyiha va tashabbus to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari mumkin. Boshqacha aytganda, mahalla budjeti tizimi aholining davlat va mahalla hokimiyatlariga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi va jamoatchilikni maqsadli, adolatli va samarali ijtimoiy islohotlarga jalb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of sorporate finanse. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol object. Proseedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esological systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finance: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.